

**Samarqand davlat veteraniya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
“Iqtisodiyot va buxgalteriya xisobi” kafedrasi assistenti Yorbekova Dilorom
Muxammadkulovnaning “Statistika” fanidan “Mehnat resurslari statistikasi” mavzusida
ochiq amaliy darsining ishlanmasiga**

TAQRIZ

Samarqand davlat veteraniya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “Iqtisodiyot va buxgalteriya xisobi” kafedrasi assistenti Yorbekova Dilorom Muxammadkulovnaning “Statistika” fanidan “Mehnat resurslari statistikasi” mavzusida o‘chiq amaliy darsi o‘tkazilib, kafedra professor-o‘qituvchilari va guruh talabalari ishtirok etishdilar.

Mashg‘ulot kalendar rejaga va fan sillabusiga ko‘ra amaliy darsi hisoblanadi, o‘qituvchi darsni o‘z vaqtida boshladi. Auditoriyada mashg‘ulotni olib borish uchun zarur bo‘lgan barcha texnik vositalar yetarli. Auditoriya slaydlar namoyishi uchun elektron doska bilan ta’minlangan, doska va yozuv qurollari mavjud. O‘qituvchi mashg‘ulot mavzusini e’lon qildi va rejalar bilan talabalarni tanishtirdi. “Statistika” fani bo‘yicha ishlab chiqilgan ta’lim texnogiyasida yoritilgan mavzuning texnologik xaritasiga ko‘ra mashg‘ulotning maqsadi va vazifalarini e’lon qildi. O‘qitish vositalardan-tarqatma materiallar, qog‘ozda chiqarilgan va tarqatma materiallar sifatidagi slaydlar, didaktik vositalardan foydalanildi. Materiallarni bayon etishdagi aniqlilik, mantiqiylilik va izchillik kuzatildi. D.M.Yorbekova dars davomida o‘zini juda erkin tutdi. Dars oxirida mavzuga xulosa qilindi va talabalarga topshiriqlar berildi.

Umuman olganda, assistant D.M.Yorbekova tomonidan o‘tkazilgan o‘chiq dars o‘z maqsadiga erishdi deb hisoblayman. O‘chiq darsni baholash mezonlari bo‘yicha bahosi 90 ball baholashni taklif qilaman.

**SamISI, “Marketing” kafedrasi
mudiri, dotsent, f.f.d.**



D.H.Xolmamatov